



YOSHLARDA ZO'RAVONLIK QILMASLIK MADANIYATINI SHAKLLANTIRISH

Sarvar Saidov Faxriddin o'g'li

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Yurisprudensiya fakulteti. III bosqich talabasi

<https://www.doi.org/10.5281/zenodo.7809710>

ARTICLE INFO

Received: 29th March 2023

Accepted: 07^t April 2023

Online: 08th April 2023

KEY WORDS

Yoshlar, zo'ravonlik qilmaslik, axloqiy tamoyil, shaxs, shaxslararo munosabat.

ABSTRACT

Madaniyat zamon va makon hamda yosh tanlamaydi. Shu boisdan ham uning o'ziga yarasha turlari yaratilgan bo'lsa ajab emas.

So'zning avvali bejizga madaniyat tushunchasi bilan bog'liq holda boshlanmadi. Chunki maqolaning asosiy mazmuni bugun zamonaviy hayotning ilg'or ishtirokchilaridan sanaluvchi yoshlarda zo'ravonlik qilmaslik madaniyatini shakllantirish haqidadir.

Bugungi tezkor sur'atlarda rivojlanish pog'onalaridan borayotgan jamiyatda hamda uning ilg'or ishtirokchilari bo'lgan yoshlar orasida zo'ravonlik qilmaslik qadriyatlari haqidagi turli shakldagi ishlarni joriy etish inson va insoniyatning ma'naviy, axloqiy yuksalishida muhim rol o'ynaydi. Biroq bazi hollarda zo'ravonlik qilmaslik qadriyatlari va ularga asoslangan xatti-harakatlar modellari zamonaviy dunyoda juda ham mashhur emasligiga guvoh bo'linayotgani ham yolg'on emas.

Turli adabiyotlar va ijtimoiy-siyosiy lug'atlar zo'ravonlik qilmaslikning axloqiy prinsipi XX asrning 80-yillari oxiridan boshlab mustahkamlanib kelinganligidan darak beradi. Bu masalada asosiy rolni fuqarolik tashabbuslari va albatta, zo'ravonlik falsafasi hamda etikasining akademik tadqiqotlari o'z qo'liga oladi.

Zo'ravonlik qilmaslikning zamon bilan hamnafas konsepsiyasi zo'ravonlikni shaxs va shaxslararo munosabatlarni, undan keyingi navbatda esa ijtimoiy institutlarni, odamlarning katta massalari, davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirish usuli sifatida ta'riflash bilan tavsiflanadi.

Zo'ravonlik qilmaslik har bir shaxsning erkin mavjudot sifatida o'zini o'zi qadrlashiga ishonishdan va shu bilan birga, barcha odamlarning yaxshilik va yomonlikdagi o'zaro bog'liqligidan kelib chiqadi. Zo'ravonlikdan o'zini tiyish o'zining asosiy urg'usini insondagi yaxshilikka qaratadi. Hamda zo'ravonlik qilmaslik strategiyasi tarafdorlari fuqarolarning hamkorligi va itoatkorligi har qanday hukumatning asosi ekanligiga ishonishadi va bu har qanday siyosiy rejimlar va har qanday tashkilotlar uchun to'g'ri keladi.

Tashkilotlar va davlat uchun mos keluvchi zo'ravonlik strategiyasini ta'kidlashdan so'ng yoshlar mavzusiga to'xtalib, ularda zo'ravonlikka qarshi g'oyalarni uyg'otish va zo'ravonlik qilmaslik madaniyatini shakllantirish jihatlariga, masalalariga e'tibor berish o'rinlidir.



Inson huquqlari, demokratiya va bag'rikenglikni o'zida aks ettirgan, hurmatga asoslangan ta'limning roli yoshlar orasida zo'ravonlik qilmaslik madaniyatini shakllantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Zo'ravonlik va zo'ravonlikka bo'lgan munosabatni belgilovchi asosiy omil — bu insonning dunyoqarashi va butun jamiyatning jamoaviy dunyoqarashidir. Faylasuflar tomonidan taklif qilingan «ishontirish etikasi» bilan bog'liq zo'ravonliksiz paradigmaga ko'ra, zo'ravonlikka asoslangan faoliyat, zo'ravonlik qilmaslik usullari va strategiyalarini o'rganish kerak: dialog, meditatsiya, muqobillarni shakllantirish va amalga oshirishni o'rganish va hokazo.

Xuddi shu munosabat va fikrlardan kelib chiqqan holda, yoshlarda zo'ravonlik qilmaslik madaniyatini shakllantirishda dialog, meditatsiya, muqobillarni shakllantirish va amalga oshirishni o'rganib, ta'limiy jarayonlarga tadbiq etish samarali bo'ladi.

Hozirda ommaviy axborot vositalarida, ilmiy nashrlar, zamonaviy fantastika, ayniqsa, eng ko'p o'qiladigan didektiv adabiyotlar, shuningdek, barcha turdagi «Yangiliklar»da zo'ravonlik mavzulari (va shunga mos ravishda unga munosabat syujetlari) tobora ko'proq eshutilmoqda. Xuddi shunday holat ilmiy adabiyotlar oqimida ham kuzatiladi. Ayni shularni chuqur o'rganib, ta'limning zo'ravonlik madaniyatini shakllantirishdagi rolini yuksaltirish joiz. Buning uchun zaruriy adabiyotlar jamlanmasini yaratish va yoki mavjudlarining ta'lim jarayonlarida qo'llanilishini joriy qilish darkor.

Innovatsion ta'lim muhitida yoshlar bilan multimediali mashg'ulotlarni tashkil etish hamda ushbu mashg'ulotlarning amaliy qismida zo'ravonlikning salbiy natijalarini ularga chuqurroq tushuntirishga asoslangan vediojamlanmalarni tadqim etish ham ijobiy natija uchun xizmat qiladi.

Yuqorida aytilganlarning barchasi tegishli ta'lim tizimini nazarda tutadi. Ta'limning alohida yo'nalishi — bu yoshlarda zo'ravonlik qilmaslik madaniyatini shakllantirish bo'yicha ishlardir. Talabalar odamlar o'rtasidagi munosabatlarda yuzaga keladigan muammoli muammolarni zo'ravonliksiz hal qilishning mavjud yondashuvlari va usullarini bilishlari, zo'ravonlik qilmaslikning oldini olishning maqsadga muvofiqligini, zo'ravonlik sabablari va imkoniyatlarini bartaraf etish usullarini ko'rsatishlari kerak.

Ayni davrdagi zamonaviy o'quv jarayoni, asosan, raqobatbardosh bitiruvchiga, uni kasbiy bilim, ko'nikma bilan qurollantirishga, o'quvchilarning intellektini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, biryoqlamadir. Axloqiy fazilatlarni, ma'naviy qadriyatlarini, insonlar o'rtasidagi munosabatlar madaniyatini shakllantiruvchi o'quv fanlarining tarbiyaviy imkoniyatlaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Shu sababli ham ma'rifiy faoliyatning asosiy maqsadi aholining, yoshlarning umumiy madaniyati va ijtimoiy faolligi darajasini oshirishga qaratilishi lozim. Bu boradagi ustuvor vazifalar quyidagilardan iborat:

- mamlakatning ilmiy va madaniy salohiyatidan fuqarolarning, yoshlar guruhining shaxsiy kamoloti manfaatlari yo'lida foydalanish;
- hokimiyat va boshqaruv organlarining rejalashtirilgan siyosiy qarorlari to'g'risida fuqarolarni, yoshlar jamoasini o'z vaqtida xabardor qilish va bu qarorlarning mohiyatini tushuntirish;



- fuqarolarning hamda yoshlarning o'z manfaatlarini, shuningdek, hayot sharoitlarini adekvat tushunishlariga ko'maklashish;
- yoshlar hamda fuqarolarning amaliy faoliyatning turli jabhalarida, jumladan, jamoat birlashmalari va harakatlarida faol va malakali ishtirok etishiga ko'maklashish;
- yoshlarning kasbiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy yo'nalishini yuqori saviyada rag'batlantirish;
- muayyan dolzarb masala yuzasidan jamoatchilik fikrini shakllantirish.

Ta'kidlangan fikr-mulohazalarning va tavsiyalarning xulosa sifatida aytish mumkinki, zo'ravonlik qilmaslik madaniyati kuchga emas, balki yoshlarning ongi va vijdoniga tayanishni anglatadi. Yoshlarda zo'ravonlik qilmaslik madaniyatini shakllantirish muvaffaqiyati ko'p jihatdan ilmiy xususiyatga, yondashuvlarning murakkabligiga, ta'lim jarayonini maqsadli va aniq boshqarish orqali ta'lim salohiyati, kuchlari, vositalaridan oqilona foydalanishga bog'liq.

References:

1. Бидова Б.Б. Общекриминологическое противодействие молодежному экстремизму //В сборнике: Актуальные вопросы юридических наук Материалы Международной заочной научной конференции. Ответственный редактор: О.А. Шульга. 2012.- С. 75-77.
2. Бахмадов М. Б. Криминологическое объяснение существования молодежного экстремизма, основанного на национальном или религиозном признаках //Вестник Ессентукского института управления, бизнеса и права. 2012. No 5. — С. 67–69.
3. Бидова Б. Б. Особенности национального самосознания и его роль в становлении межконфессиональной толерантности //Молодой ученый. 2013. No 3. — С. 344–346.
4. www.dsmi.uz
5. www.tdpu.uz
6. <https://core.ac.uk>
7. https://t.me/jalilova_dilshoda_2292
8. https://t.me/ilmiy_yordam_beraman